

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Buxoro davlat universiteti
“Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrası**

**"O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH
MAQSADLARIGA ERISHISH VA YASHIL IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI"**

**Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

2025 yil, 14-15 aprel

1

Buxoro – 2025

“O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. 2025-yil 14-15-aprel: - Buxoro : “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona Nashriyoti, 2025.-620 b.

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo‘mita

- | | | | |
|----|------------------|---|---|
| 1. | O.X. Xamidov | – | Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais; |
| 2. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini; |
| 3. | A.T.Jo‘rayev | – | Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor, i.f.n, a‘zo; |
| 4. | N.S. Ibragimov | – | Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, v.b., DSc., i.f.d.prof. a‘zo; |
| 5. | B.N. Navruz-Zoda | – | Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., a‘zo; |
| 6. | A.J. Abdullayev | – | Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.f.d., professor, a‘zo; |
| 7. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo; |
| 8. | M.A. Oripov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n., a‘zo; |
| 9. | X.R.Turobova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a‘zo; |

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo‘mita

- | | | | |
|-----|-----------------|---|--|
| 1. | K.A.Samiyev | – | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais; |
| 2. | N.S. Ibragimov | – | Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, v.b., DSc., i.f.d.prof, rais muovini; |
| 3. | O‘. U.Rashidov | – | Moliya va iqtisodiyot ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo; |
| 4. | O.S.Qahhorov | – | Ilmiy tadqiqod va inovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, a‘zo; |
| 5. | A.J. Abdullayev | – | Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.f.d., professor, a‘zo; |
| 6. | Sh.Sh.Boltayev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, a‘zo; |
| 7. | M.A. Oripov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n., a‘zo; |
| 8. | X.R.Turobova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.f.d, a‘zo; |
| 9. | S.S.Ro‘ziyev | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, i.f.n, a‘zo; |
| 10. | F.K.Saidova | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo; |
| 11. | A.D.Qudratov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo; |
| 12. | N.D. Salixov | – | Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo; |

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalar mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas‘uldirlar.

Conclusion

While Uzbekistan has its distinct cultural and historical identity, the integration of Confucian principles can complement existing values and practices, promoting a more harmonious, ethical, and cohesive society. By incorporating Confucian ideas into education, government, corporate management, family, and social structures, Uzbekistan can enhance social stability and organizational effectiveness. The integration of Confucian values into modern corporate governance provides a robust framework for ethical and effective management. By embracing principles such as ethical leadership, adherence to proper conduct, fairness, continuous learning, trustworthiness, social responsibility, respect for hierarchy, harmony, family-like culture, and long-term orientation, organizations can foster a positive and sustainable corporate environment. These values not only enhance the moral and ethical standards of the organization but also contribute to its overall success and stability.

LITERATURE.

1. Gulchehra N. PROSPECTS FOR INCREASING THE COMPETITIVENESS OF THE NATIONAL ECONOMY THROUGH THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
2. Igamova S. WAYS TO ORGANIZE INNOVATIVE ACTIVITY IN ECONOMIC SECTORS AND INCREASE ITS EFFECTIVENESS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 24. – №. 24.
3. Gulchehra N. The Role Of Creative Marketing In Creating Modern Brands //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
4. Ashurova M. CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF INCREASING THE EFFECTIVENESS OF ADVERTISING ACTIVITIES IN TOURIST COMPANIES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
5. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
6. Gulchehra N. TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
7. Narzullayeva G. S. et al. New Technologies and the Revolution in the Tourism Sector //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 97-101.
13. Li Honglei: "Confucian Business Wisdom", People's Publishing House, 2017 edition, page 43.
14. Li Honglei: "Confucian Business Wisdom", People's Publishing House, 2017 edition, page 97.
15. Li Honglei: "Confucian Business Wisdom", People's Publishing House, 2017 edition, page 133.
16. Li Honglei: "Confucian Business Wisdom", People's Publishing House, 2017 edition, page 170.
17. Li Honglei: "Confucian Business Wisdom", People's Publishing House, 2017 edition, page 248.

Qilichov Muhriddin

Buxoro davlat universiteti

Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi dotsenti, doktorant

YASHIL IQTISODIYOT KONTEKSTIDA MADANIY MEROS: ILMIY TENDENSIYALAR VA TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada “yashil iqtisodiyot” va “madaniy meros” tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Scopus bazasi asosida “heritage” va “green

economy” kalit soʻzlari boʻyicha bibliometrik izlanish olib borildi. Umumiy 49 ta nashr aniqlanib, ularning yillik taqsimoti, hujjat turlari va kalit soʻzlar asosida tahlil qilindi. VOSviewer dasturi yordamida klaster va vaqt boʻyicha tahlillar amalga oshirildi. Natijalar ushbu mavzu soʻnggi yillarda tez surʼatlarda rivojlanayotganligini va hali toʻliq oʻrganilmagan ilmiy boʻshliqlar mavjudligini koʻrsatdi. Tadqiqot ushbu yoʻnalishda yangi konseptual yondashuvlar uchun asos yaratadi.

Kalit soʻzlar: yashil iqtisodiyot; madaniy meros; bibliometrik tahlil; Scopus; VOSviewer; barqaror rivojlanish; kalit soʻzlar tahlili

Abstract

This article explores the interconnection between the concepts of “green economy” and “cultural heritage” through a bibliometric analysis of scientific literature. A search was conducted in the Scopus database using the keywords “heritage” and “green economy,” resulting in 49 relevant publications. These documents were analyzed by year, document type, and keywords. Cluster and temporal analyses were carried out using the VOSviewer software. The findings reveal a growing academic interest in this intersection in recent years and highlight existing research gaps. The study provides a conceptual foundation for further interdisciplinary investigations.

Key words: green economy; cultural heritage; bibliometric analysis; Scopus; VOSviewer; sustainable development; keyword analysis

Аннотация

В данной статье рассматривается взаимосвязь между понятиями «зеленая экономика» и «культурное наследие» на основе библиометрического анализа научной литературы. По ключевым словам «heritage» и «green economy» был выполнен поиск в базе данных Scopus, в результате которого было выявлено 49 публикаций. Документы проанализированы по годам, типам публикаций и ключевым словам. С помощью программы VOSviewer проведены кластерный и временной анализ. Результаты показывают растущий научный интерес к данной теме в последние годы и наличие нерешённых научных проблем. Исследование служит основой для дальнейших междисциплинарных разработок.

Ключевые слова: зеленая экономика; культурное наследие; библиометрический анализ; Scopus; VOSviewer; устойчивое развитие; анализ ключевых слов

1. Kirish

Soʻnggi yillarda barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yashil iqtisodiyot tamoyillari global siyosat va ilmiy izlanishlarning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Yashil iqtisodiyot – bu resurslardan oqilona foydalanishga, ekologik xavfsizlikni taʼminlashga va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy model boʻlib, u turli sohalarga, jumladan, madaniy merosni boshqarishga ham taʼsir koʻrsatmoqda (Nocca et al., 2021).

Madaniy meros esa, oʻz navbatida, nafaqat tarixiy va estetik qadriyatlarni, balki iqtisodiy imkoniyatlarni, ayniqsa, turizm va mahalliy rivojlanish sohalari namoyon etuvchi resurs sifatida qaralmoqda (Cerisola et al., 2024). Yashil iqtisodiyot va madaniy meros oʻrtasidagi integratsiya, ayniqsa, meros obyektlarini ekologik barqarorlik prinsiplariga muvofiq boshqarish, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va avlodlar uchun saqlab qolish maqsadida dolzarb boʻlib bormoqda (Di Turo & Medeghini, 2021; Nocca et al., 2021). Ilmiy adabiyotlarda ushbu ikki konsepsiyaning oʻzaro aloqasi turli kontekstlarda tahlil qilinmoqda, biroq ushbu bogʻliqlikning ilmiy tendensiyalarini aniqlash, asosiy mavzular va metodologik yondashuvlarni baholash orqali yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur tezisda Scopus bazasidagi nashrlar asosida yashil iqtisodiyot va madaniy meros konsepsiyalarining oʻzaro kesishgan nuqtalari bibliometrik yondashuv asosida tahlil qilinadi.

2. Adabiyotlar sharhi

Yashil iqtisodiyot va madaniy meros konsepsiyalari soʻnggi oʻn yilliklarda ilmiy doiralarda mustaqil ravishda rivojlangan boʻlsa-da, ularning oʻzaro bogʻliqligini oʻrganish masalasi nisbatan

yangi ilmiy yoʻnalish hisoblanadi. Har ikki tushuncha barqaror rivojlanish doirasida alohida ahamiyat kasb etadi: yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni taʼminlashni nazarda tutsa, madaniy meros jamiyatning tarixiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarini saqlab qolishga xizmat qiladi (Spennemann, 2022).

Ushbu ikki konsepsiyaning integratsiyasi atrof-muhitni muhofaza qilish va meros obyektlaridan barqaror foydalanishni birgalikda yoʻlga qoʻyish imkonini beradi. Shu sababli, ilmiy manbalarda yashil iqtisodiyot va madaniy merosning qanday kontekstlarda oʻrganilganini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur adabiyotlar tahlilining asosiy maqsadi – ushbu ikki yoʻnalish kesishmasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning yoʻnalishi, qamrovi, metodologiyasi va ilmiy boʻshliqlarini aniqlashdan iborat. Tahlil natijalari kelgusida konseptual model va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

2.1. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining rivojlanishi

Yashil iqtisodiyot tushunchasi global ekologik inqirozlar, iqlim oʻzgarishi va resurslardan haddan tashqari foydalanish muammolari kuchaygan bir paytda shakllanib, 2008-yildan boshlab jahon miqyosidagi siyosiy va ilmiy muhokamalarning markaziga aylana boshladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit boʻyicha dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan *“Towards a Green Economy”* hisobotida yashil iqtisodiyot iqtisodiy oʻsish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni birlashtiruvchi yondashuv sifatida talqin qilinadi (UNEP, 2011). Yashil iqtisodiyot modelida resurslar samaradorligi, past uglerodli texnologiyalar, ekologik infratuzilmalar va ijtimoiy inklyuzivlik asosiy tamoyillar sifatida ajralib turadi (OECD, 2012). Ushbu yondashuv nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki yangi ish oʻrinlari yaratish, barqaror isteʼmolni shakllantirish va mahalliy darajada innovatsion oʻsishni qoʻllab-quvvatlash imkonini beradi (Hysa et al., 2020). Ilmiy adabiyotlarda yashil iqtisodiyot koʻproq energetika, qishloq xoʻjaligi, transport va sanoat tarmoqlari bilan bogʻliq holda oʻrganilgan boʻlsada, keyingi yillarda uning shaharsozlik, madaniy merosni boshqarish va turizm sohalaridagi roli ham alohida eʼtiborga olinmoqda. Bu esa yashil iqtisodiyotning transdisiplinar xarakterga ega boʻlayotganidan dalolat beradi.

2.2. Madaniy merosni boshqarish va barqarorlik

Madaniy meros insoniyat tarixiy tajribasining, estetik qarashlarining va ijtimoiy qadriyatlarining beqiyos koʻrinishi boʻlib, uni saqlab qolish va boshqarish barqaror rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan madaniy merosni boshqarish siyosatlarini bu sohani ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik bilan bogʻlashga alohida urgʻu beradi (UNESCO, 2021). Madaniy meros obyektlari nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki turizm, ijodiy iqtisodiyot va mahalliy darajadagi iqtisodiy oʻsish manbai sifatida ham qaralmoqda (Canaan, 2019).

Shu bilan birga, merosni saqlashda ekologik yondashuvni qoʻllash – energiyani tejash, materiallardan qayta foydalanish va joylashuv muhitiga mos keladigan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi (Karabeyeser et al., 2025). Soʻnggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar madaniy merosni boshqarishda “barqaror foydalanish” tamoyillariga asoslangan yondashuvlar, yaʼni saqlab qolish va samarali foydalanishni birlashtirish zarurligini taʼkidlamogda. Bu esa yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi bilan kesishadigan muhim nuqtalarni yuzaga chiqaradi.

2.3. Yashil iqtisodiyot va madaniy meros oʻrtasidagi integratsiya

Yashil iqtisodiyot va madaniy meros oʻrtasidagi integratsion yondashuv zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ekologik, iqtisodiy va madaniy omillarni bir butun tizim sifatida qarash zaruratidan kelib chiqmoqda. Bu yondashuv ayniqsa urbanizatsiya, barqaror turizm va merosni boshqarish sohalarida keng namoyon boʻlmoqda (Nemethy, 2021). Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, madaniy meros resurslari yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos boshqarilganda, ular nafaqat ekologik barqarorlikni taʼminlaydi, balki mahalliy hamjamiyatlar uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi va ekologik ongni rivojlantiradi (UNESCO, 2016; Duxbury et al., 2016). Shahar merosini saqlashda yashil infratuzilma, kam uglerodli transport tizimlari va energiyani tejovchi rekonstruksiya yondashuvlari tobora keng qoʻllanilmoqda. Ayniqsa, barqaror turizm doirasida meros obyektlaridan foydalanish va ekologik masʼuliyatni uygʻunlashtirish ilmiy doiralarda alohida mavzuga aylangan (Nowacki, 2021). Biroq mavjud adabiyotlar tahlili shuni

ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot va madaniy merosni bog'lovchi konseptual asoslar hali to'liq shakllanmagan, bu esa ushbu yo'nalishda yanada chuqur tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

2.4. Bibliometrik tahlillarga asoslangan ilmiy bo'shliqlar

Yashil iqtisodiyot va madaniy meros sohalarida olib borilgan tadqiqotlar alohida yo'nalishlar sifatida jadal rivojlangan bo'lsa-da, ularning o'zaro kesishgan nuqtalarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar soni nisbatan kam va parchalangan holatda qolmoqda. Scopus bazasidagi dastlabki bibliometrik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, "green economy" kalit so'zi bilan bog'liq tadqiqotlar ko'proq tabiiy resurslar, energetika va atrof-muhit muhofazasi bilan bog'langan; "cultural heritage" esa turizm, tarixiy shaharlar va konservatsiya masalalari doirasida o'rganilgan. Biroq ushbu ikki tushuncha birgalikda tahlil qilingan hollarda, asosan siyosiy tavsiyalar yoki amaliy loyihalarga oid maqolalar uchraydi, ilmiy metodologiyalar va konseptual asoslar bo'yicha esa hali izchil yondashuvlar mavjud emas. Ayniqsa, madaniy merosni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida baholash, monitoring qilish yoki uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ko'rsatuvchi indikatorlarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Bu esa ushbu mavzuda sistematik, transdisiplinar va empirik asoslangan tadqiqotlarni olib borish zarurligini ta'kidlaydi. Bibliometrik tahlillar, ayni paytda, ilmiy tendensiyalardagi bo'shliqlarni aniqlash va istiqbolli yo'nalishlarni belgilashda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, bibliometrik tahlil orqali mavzuga oid ilmiy yo'nalishlar va yangi integratsion imkoniyatlarni aniqlashni maqsad qiladi.

3. Metodologiya

3.1. Ma'lumotlarni tanlab olish (Scopus qidiruvi)

Ushbu tadqiqot uchun bibliometrik tahlil Scopus ilmiy maqolalar bazasi orqali amalga oshirildi. Qidiruv jarayoni 2025-yil mart oyida amalga oshirilib, so'nggi yillarda "yashil iqtisodiyot" va "meros" konsepsiyalarining qanday bog'lanib o'rganilganini aniqlash maqsad qilingan. Qidiruv quyidagi kalit so'zlar asosida ingliz tilida olib borildi: "heritage" AND "green economy".

Qidiruv barcha fan sohalari, hujjat turlari (ilmiy maqola, konferensiya tezisi, kitob boblari) va nashr tillarini qamrab oldi. Dastlabki natijalar filtrlab olinib, faqat mavzuga bevosita aloqador bo'lgan nashrlar tanlab olindi. Maqolalar bibliografik formatda (.csv) eksport qilinib, keyingi tahlil uchun VOSviewer dasturiga yuklandi.


3.2. Bibliometrik tahlil vositasi: VOSviewer

Tahlil jarayonida VOSviewer dasturidan foydalanildi – bu ilmiy maqolalardagi bibliometrik munosabatlarni vizual ko'rinishda aks ettiruvchi ochiq manbali dasturdir. U ko'p takrorlangan kalit so'zlar, mualliflar, tashkilotlar va mamlakatlar o'rtasidagi aloqadorliklarni aniqlash va klasterlash imkonini beradi (Abdelwahab et al, 2023). Ushbu tadqiqotda kalit so'zlar asosida co-occurrence (birgalikda uchrashuv) tahlili amalga oshirilib, mavzu doirasida eng ko'p ishlatilgan atamalar va ularning qanday mavzuviy klasterlarga birlashgani aniqlandi. Tahlil orqali mavzuga oid ilmiy tendensiyalar, dominant yo'nalishlar va ilmiy hamkorlik tarmog'i vizual xarita shaklida hosil qilindi. Ushbu yondashuv mavzuning ilmiy manzarasini tizimli tushunishga xizmat qiladi.

4. Natija va tahlillar

Scopus bazasida "heritage" AND "green economy" kalit so'zlari asosida olib borilgan qidiruv natijasida jami 49 ta ilmiy material aniqlangan. Ushbu materiallar 2011–2025-yillar oralig'ini qamrab oladi va mavzuning nisbatan yangi yo'nalish sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi (1-chizma). Yillik taqsimotga ko'ra, ayniqsa so'nggi besh yillikda ilmiy faollik keskin oshgani kuzatiladi. Jumladan, 2020-yilgacha har yili nashrlar soni 1–3 dona atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 17 ta, 2025-yilning dastlabki oylarida esa 3 ta nashr aniqlangan. Bu esa "meros" va "yashil iqtisodiyot" o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy jamoatchilik tomonidan tobora ortib borayotgan qiziqish doirasiga kirayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2020-yildan so'ng global barqarorlik kun tartibi kuchaygani va BMT barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida meros va ekologik yondashuvlar o'zaro yaqinlashgani kuzatilmoqda.

49 materiallarning ko'pchilik qismi (63%) – ilmiy maqolalar (31 ta) dan iborat. Bu esa mavzuga oid akademik muhokamalar asosan rasmiy ilmiy jurnallarda olib borilayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, 8 ta konferensiya materiali, 5 ta kitob boblari va 2 ta konferensiya sharhi mavjud bo'lib, bu mavzuga bo'lgan qiziqishning kengayib borayotganini bildiradi. Bundan tashqari, 2 ta sharhlovchi maqola (review) va 1 ta tahririy eslatma (editorial) aniqlangan (2-Chizma). Ushbu taqsimot mavzuning akademik jurnallar bilan bir qatorda konferensiya muhokamalari va kitob boblari orqali ham faol o'rganilayotganini anglatadi. Xususan, bu nashr turlari orqali mavzuning nazariy hamda amaliy yo'nalishlari birgalikda rivojlanayotganini taxmin qilish mumkin.



2-Chizma. Scopus nashrlarining hujjat turlari bo'yicha taqsimoti²

4.1. Kalit soʻzlar tahlili va mavzuvii klasterlar

VOSviewer dasturi yordamida amalga oshirilgan kalit soʻzlar boʻyicha co-occurrence tahlili natijasida mazkur mavzuga oid ilmiy ishlar bir nechta klasterlarga ajraldi (3-Chizma). Markaziy kalit soʻz sifatida “green economy” ajralib turadi va u atrofida bir necha asosiy mavzular guruhlashgan. Xaritada eng yirik klasterlardan biri “sustainable development”, “climate change” va “environmental economics” kabi atamalar bilan bogʻlangan boʻlib, yashil iqtisodiyotning ekologik va iqtisodiy oʻlchovlarini aks ettiradi. Bu klasterda energiyani tejash, atmosfera ifloslanishi, va cost-benefit analysis kabi tamoyillar koʻplab maqolalarda yoritilganini koʻrish mumkin.


¹ Muallif ishlanmasi

² Muallif ishlanmasi

Ikkinchi asosiy klaster “cultural heritage”, “heritage conservation” va “green tourism” atamallari bilan bog‘liq bo‘lib, madaniy merosning turizm, iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik kontekstida tahlil qilinishini ko‘rsatadi. Bu klasterda China, empirical analysis, va economic development kabi kalit so‘zlar ham mavjud bo‘lib, tadqiqotlarning ayrim mamlakatlarga yo‘naltirilganini bildiradi.

Yana bir qiziqarli guruh “heritage”, “world heritage site”, “agricultural production” va “Russian Federation” bilan bog‘langan bo‘lib, bu mavzular ko‘proq hududiy va sektorlararo tahlillarga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, ayrim alohida so‘zlar, masalan, “blue economies”, “adversarial machine learning”, va “abiotic” mavzuga yondosh, innovatsion yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi.

3-Chizma. “Green economy” va “Heritage” atamallari asosida kalit so‘zlarning klasterlash xaritasi (co-occurrence analysis)¹



Ushbu klasterlash xaritasi mavzuga oid ilmiy yo‘nalishlar ko‘lamini kengligini, tarmoq ichidagi aloqalarni va dolzarb mavzularni vizual ravishda namoyish etadi. Ayniqsa, “green economy” va “cultural heritage” atamalarining o‘zaro yaqin joylashuvi, bu ikki tushuncha o‘rtasidagi integratsiya ilmiy jamoa tomonidan e’tirof etilayotganini bildiradi.

4.2. Kalit so‘zlarning vaqt bo‘yicha tahlili (temporal trend)


VOSviewer dasturining vaqt o‘lchovi bo‘yicha xaritasi mavzuga oid ilmiy yo‘nalishlar qanday rivojlanganini ko‘rsatadi (4-Chizma). Xaritada ko‘k rangdagi kalit so‘zlar 2016–2018-yillardagi nashrlarga, yashil va sariq ranglar esa 2022–2024-yillardagi maqolalarga to‘g‘ri keladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, dastlabki yillarda “heritage conservation”, “green growth” va “ecological tourism” kabi atamalar asosiy yo‘nalish bo‘lgan. Biroq keyingi yillarda bu yo‘nalish kengayib, “cultural heritage”, “green tourism”, “architectural education”, “government” va “economic development” kabi yangi kalit so‘zlar bilan boyigan.

¹ Muallif ishlanmasi (VOSviewer ilovasi asosida)

Ayniqsa, 2022–2024-yillarda dolzarb bo‘lib borgan so‘zlar — “sustainability”, “cultural change”, va “green development” — mavzuning zamonaviy siyosiy va ijtimoiy kontekst bilan bog‘lanayotganini anglatadi. “Green economy” atamasi esa har yili muhim kalit so‘z sifatida markaziy o‘rinda qolmoqda, bu uning mavzudagi ustuvorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, yangi va nisbatan innovatsion yo‘nalishlar – masalan, “abiotic”, “adversarial machine learning”, va “blue economies” – ham so‘nggi yillarda yuzaga chiqqan bo‘lib, mavzuning multidisplinar potensialini ko‘rsatadi.

4-Chizma. Kalit so‘zlarning vaqt bo‘yicha rivojlanishini aks ettiruvchi VOSviewer xaritasi (overlay visualization)¹

5. Xulosa



Yashil iqtisodiyot va madaniy meros o‘rtasidagi bog‘liqlik so‘nggi yillarda global ilmiy diskursda tobora dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Ushbu tezisda “green economy” va “heritage” atamaları asosida Scopus bazasida olib borilgan bibliometrik tahlil orqali ushbu ikki konsepsiyaning ilmiy maydondagi integratsiya holati o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, 2011–2025-yillar oralig‘ida mavzu bo‘yicha nashrlar soni sezilarli darajada oshgan bo‘lib, ayniqsa 2024–2025-yillarda ilmiy faollik keskin kuchaygani kuzatildi. Nashrlar asosan ilmiy maqolalar shaklida bo‘lib, konferensiya materiallari va kitob boblari orqali ham keng muhokama qilingan.

VOSviewer tahlili orqali aniqlangan kalit so‘zlar klasterlari mavzuning ko‘lamini kengligi va turli fanlar bilan kesishganligini ko‘rsatdi. “Green economy”, “sustainable development”, “climate change” va “environmental economics” kabi atamalar yashil iqtisodiyot doirasini belgilagan bo‘lsa, “cultural heritage”, “green tourism” va “heritage conservation” kabi kalit so‘zlar madaniy merosning barqarorlik bilan aloqasini aks ettiradi. Vaqt bo‘yicha tahlil esa mavzuning evolyutsiyasi va dolzarb yo‘nalishlarini ko‘rsatdi.

Ushbu tadqiqot mavzuga oid ilmiy tendensiyalarni tizimli tahlil qilish, mavjud bo‘shliqlarni aniqlash va kelajakda mazkur ikki konsepsiyani chuqurroq integratsiyalashgan holatda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bibliometrik yondashuv bu sohada yangi nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun yo‘l ochadi.

6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Abdelwahab, S. I., Taha, M. M. E., Moni, S. S., & Alsayegh, A. A. (2023). Bibliometric mapping of solid lipid nanoparticles research (2012–2022) using VOSviewer. *Medicine in Novel Technology and Devices*, 17, 100217. <https://doi.org/10.1016/j.medntd.2023.100217>

¹ Muallif ishlanmasi (VOSviewer ilovasi asosida)

- Canaan, R.(2019). Creative Economy and Cultural Heritage: A Proposal to Tourism Development and Appreciation of Local Identity. *Strategic Design Research Journal*, volume 12, number 02, May –August 2019. 276-288.Doi: 10.4013/sdrj.2019.122.12
- Cerisola, S., & Panzera, E. (2024). Heritage tourism and local prosperity: An empirical investigation of their controversial relationship. *Tourism Economics*, 0(0). <https://doi.org/10.1177/13548166241234099>
- Di Turo, F., & Medeghini, L. (2021). How Green Possibilities Can Help in a Future Sustainable Conservation of Cultural Heritage in Europe. *Sustainability*, 13(7), 3609. <https://doi.org/10.3390/su13073609>
- Duxbury, N., Hosagrahar, J., & Pascual, J. (2016). *Why Must Culture Be at the Heart of Sustainable Urban Development?* *Culture and Local Governance*, 6(1), 7–20.
- Hysa, E., Kruja, A., Rehman, N. U., & Laurenti, R. (2020). Circular Economy Innovation and Environmental Sustainability Impact on Economic Growth: An Integrated Model for Sustainable Development. *Sustainability*, 12(12), 4831. <https://doi.org/10.3390/su12124831>
- Karabeyeser Bakan, M., Fouseki, K. and Altamirano, H. (2025), "Heritage conservation and energy efficiency in adaptive reuse projects the case of Gaziantep, Türkiye", *Journal of Cultural Heritage Management and Sustainable Development*, Vol. 15 No. 1, pp. 114-131. <https://doi.org/10.1108/JCHMSD-07-2023-0105>
- Nemethy, S. (2021). New, regenerative approaches to sustainability: Redefining ecosystem functions, environmental management, and heritage conservation. *Ecocycles*, 7(2), 86–91. <https://doi.org/10.19040/ecocycles.v7i2.212>
- Nocca, F., De Toro, P., & Voysekhovska, V. (2021). Circular economy and cultural heritage conservation: A proposal for integrating Level(s) evaluation tool. *Aestimum*, 78. <https://doi.org/10.36253/aestim-10119>
- Nowacki, M. (2021). Heritage Interpretation and Sustainable Development: A Systematic Literature Review. *Sustainability*, 13(8), 4383. <https://doi.org/10.3390/su13084383>
- OECD. (2012). *Green Growth and Sustainable Development*. Organisation for Economic Co-operation and Development.
- Spennemann, D. H. R. (2022). The Nexus between Cultural Heritage Management and the Mental Health of Urban Communities. *Land*, 11(2), 304. <https://doi.org/10.3390/land11020304>
- UNEP. (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. United Nations Environment Programme.
- UNESCO. (2016). *Culture: Urban Future – Global Report on Culture for Sustainable Urban Development*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
- UNESCO. (2021). *World Heritage and Sustainable Development: Policy Guidelines*. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

Muratova Shohista Nimatullayevna,

Bojxona instituti kafedra boshlig'i, i.f.d., professor

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA TOVARLAR “YASHIL” EKSPORTINING ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizning tashqi savdo siyosatini amalga oshirish jarayoni tahlil qilingan bo'lib, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va uning jahon miqyosida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yuqori texnologiyali tovarlarning sotish hajmini oshirish zarurati sezilarli ta'sir ko'rsatishi tavsiflangan. “Yashil” eksport tushunchasiga aniqlik kiritilib, uning iqtisodiy va bojxona jihatlari ko'rib chiqilgan, shuningdek, uni milliy iqtisodiyotda rivojlantirish istiqbollari yoritilgan.

MUNDARIJA

I SHO'BA. Barqaror rivojlanishning xalqaro va milliy maqsadlariga erishishning amaliyoti va istiqbol yo'nalishlari.....	3
Xamidov Obidjon Xafizovich. MILLIY IQTISODIYOTDA YASHIL YONDASHUV: BARQAROR TARAQQIYOT YO'LIDA.....	3
B.Ruzmetov, Baxtiyarov Shohzod. MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI ASOSIDA KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH USTUVOR YO'NALISHLARI..	8
Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich. IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH VA "YASHIL IQTISODIYOT"	12
Ахмедов Турсун Мухитович, Абдуганиева Юлдуз Тоштемировна. ВЛИЯНИЕ ДОСТИЖЕНИЙ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НА ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	14
Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich, Hasanov Akbar Abduqodirovich. A METHOD FOR EVALUATING GROWTH IN A GREEN ECONOMY CONSIDERING LIMITED RESOURCES AND ENVIRONMENTAL IMPACT	20
Kurpayanidi, Konstantin Ivanovich, Muzaffarova Shohzodaxon Jamshidovna. THE ROLE OF THE GREEN ECONOMY IN THE TRANSITION TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON SOCIO-ECONOMIC GROWTH.....	24
Li Honglei. PROMOTING CONFUCIANISM AND MODERN CORPORATE MANAGEMENT BASED ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS IN UZBEKISTAN	27
Qilichov Muhiddin. YASHIL IQTISODIYOT KONTEKSTIDA MADANIY MEROS: ILMIY TENDENSIYALAR VA TAHLIL	31
Muratova Shohista Nimatullayevna, BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA TOVARLAR "YASHIL" EKSPORTINING ISTIQBOLLARI	38
Salayev San'atbek Komilovich, Vaisov Dilshod Ibodullayevich. TIBBIY XIZMATLAR KO'RSATUVCHI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	44
Yavmutov Dilshod Shoyimardonkulovich, Muxitdinova Lobar Solixovna. INNOVATION TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA MINTAQI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH	52
Abdulloyev Asliddin Junaydulloyevich. Barqaror rivojlanish faoliyatini ta'minlashda sug'urta tizimiga ilmiy yondashuvlar va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	60
Асланова Дильбар Хасановна, А.Б.Усманова. УЗБЕКИСТАН И ЕГО РОЛЬ В ОРГАНИЗАЦИИ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ (ОТГ)	67
Е.В. Ломоносова, В.В. Бирюков. О НЕОБХОДИМОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ КАЗАХСТАН.....	70
Маматов Бахадир Сафаралиевич. ЎЗБЕКИСТОНДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	75
Тошматов Шухрат Амонович, Шарипова Нилуфар Ҳикматуллаевна. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ЯШИЛ БАНКИНГНИНГ ЗАРУРИЯТИ	83
Raxmatulla Ergashev. XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI	87
Fayzullayev Dilshod Saydullo o'g'li. "Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tamoyillari va istiqbollari" ..	97
Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna. BARQAROR RIVOJLANISHNING XALQARO VA MILLIY MAQSADLARIGA ERISHISH AMALIYOTIDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASINING IQTISODIY AHAMIYATI	103
Baranov Alexander Sergeevich, Baranova So Alexandrovna. THE SPECIFIC ASPECTS OF THE CIS COUNTRIES INVOLVEMENT IN UNESCO'S WORLD HERITAGE PROTECTION INITIATIVES: RELEVANCE TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT.	107